

“TEMURBEKLAR MAKTABLE” TINGLOVCHILARIDA KASBIY FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK XARAKTERISTIKASI

Piraliyev Omiljon Kabilovich.

*Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti pedagogika va psixologiya
kafedrasi o’qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda hayotimizning barcha sohalarining ijtimoiy-iqtisodiy va texnik rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, mehnatning ko‘plab turlarining murakkabligi, mas’uliyati va xavfliligining ortib borishi, muayyan kasblarda, xususan harbiy xizmatchilarda kasbiy faoliyatni takomillashtirishga doir talablarning oshishi kasbiy faoliyat to‘g‘risidagi psixologik bilimlarning rolini yanada muhim ahamiyat kasb etishi haqida.

Kalit so‘zlar: kasbiy faoliyat, Temurbeklar maktabi, Qurolli kuchlar, harbiy xizmat, kasbiy pozitsiya, kasbiy tarbiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности социально-экономического и технического развития всех сфер нашей жизни в современном обществе, возрастающая сложность, ответственность и опасность многих видов труда, повышение требований к совершенствованию профессиональной деятельности в отдельных сферах профессий, в частности, военнослужащих, профессиональной деятельности о значимости роли психологических знаний.

Ключевые слова: Профессиональной деятельность, Темурбеклар мактаби, Вооружённый силы, воений служба, офицер, профессиональная позиция, профессиональный опыт.

Abstract: This article examines the features of the socio-economic and technical development of all spheres of our life in modern society, the increasing complexity, responsibility and danger of many types of work, increasing requirements for improving professional activities in certain areas. professions, in particular military

personnel, professional activities about the significance of the role of psychological knowledge.

Key words: Professional activity, Temurbeklar maktabi, Armed Forces, military service, officer, professional experience.

Kirish: Zamonaviy jamiyatda hayotimizning barcha sohalarining ijtimoiy-iqtisodiy va texnik rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, mehnatning ko‘plab turlarining murakkabligi, mas’uliyati va xavfliligining ortib borishi, muayyan kasblarda, xususan harbiy xizmatchilarda kasbiy faoliyatni takomillashtirishga doir talablarning oshishi kasbiy faoliyat to‘g‘risidagi psixologik bilimlarning rolini yanada muhim ahamiyat kasb etib borishini ta’minlaydi. Tadqiqotchilar N.S.Elman va V.N.Robinerning fikricha, kasbiy faoliyatning psixologik qonuniyatlarini, mehnat vazifalarini bajarishda shaxsning imkoniyatlari va cheklovlarini, shaxsning o‘zaro moslashish qonuniyatlarini va vositalarini, mazmunini, mehnat sharoitlarini bilish orqali pirovard natijada uning samaradorligini, ishonchlilagini, xavfsizligini oshirishi mumkin⁸.

Kasbiy faoliyat nazariyasining umumpsixologik masalalarini ham, uning amaliy jihatlarini ham o‘zida mujassam etgan kasbiy faoliyatning psixologik yo‘nalishlaridan biri bu - mehnat subyektining kasbiy yaroqliligi muammosini o‘rganish hisoblanadi. L.C.Bredliyning fikricha, hayot va kasbiy rivojlanish bosqichlarida, kasbiy qobiliyatlarning tabiatи va namoyon bo‘lish darajasi, kasbiy motivatsiyaning tuzilishi va dinamikasi bo‘yicha shaxsning xususiyatlari va fazilatlarini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi individual psixologik farqlarga alohida e’tibor qaratish lozim. Aynan shu psixologik xususiyatlar va sifatlarning holati kasbiy tayyorgarlik, faoliyatga moslashish, namoyon bo‘lish, o‘zini shaxs sifatida shakllantirish va muayyan faoliyat muammolarini hal qilish, muvaffaqiyat darajasini belgilaydi⁹.

Norvegiyaning Bergen universiteti tadqiqotchilari R.B.Yoxansen va J.C.Laberglar psixologiyada faoliyatni o‘rganishda uning obyekti, vositalari va shartlarini o‘rganish subyektning bilish jarayonlari, emotsional holatlari va individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi kerakligiga e’tibor qaratadi. Mualliflarning ta’kidlashicha, shaxs tomonidan biror-bir faoliyatni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan va rivojlanadigan psixik hodisalarga uning mahsuli sifatida qaraladi¹⁰. Ushbu predmetni baholash (uning sifati, hajmi va boshqalar), uning ijtimoiy va individual qiymati, foydaliligi, kasbiy faoliyat uchun ahamiyati va boshqalar kasbiy muvofiqlik, subyektning professionallik darajasi mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan kelib chiqadiki, harbiy xizmatchilarda kasbiy yaroqlilikning shakllanishi va namoyon bo‘lishi - kasbiy faoliyat jarayonini aqliy belgilash, qonuniyatlarini o‘rganish, faoliyatning predmetini, munosabatlari va o‘zaro ta’sirini tadqiq qilish va tahlil qilish natijalariga asoslanishi kerak. Mashhur rus olimi B.F.Lomov psixologiyada tizimli yondashuv konsepsiyasini ishlab chiqdi va, xususan, kasbiy faoliyat subyektining shakllanish qonuniyatlarini va uning faoliyatining namoyon bo‘lishini belgilovchi psixologik kategoriylar tizimini (shaxs, faoliyat, refleks va boshqalar) belgilab berdi. Subyekt faoliyatini aks ettirishning maqsadlaridan (natijalaridan) biri, muallifning fikricha, uning kasbiy yaroqliligi hamda tanlagan kasbiga mos ekanlidigidir¹¹. O‘zining va boshqa mualliflarning ishlarida keltirilgan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida B.F.Lomov faoliyat tizimining “motiv, maqsad, faoliyatni rejalshtirish, joriy ma’lumotlarni qayta ishslash, operativ ishslash, qaror qabul qilish, harakatlar, natijalarni tekshirish va harakatlarni tuzatish” kabi bir qator “shakllantiruvchi” komponentlarini ajratib ko‘rsatdi.

A.G.Maklakovning fikricha, harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatini aqliy jihatdan tartibga solish mexanizmi, xususan, subyektning ushbu faoliyatga kasbiy

muvofigligi ko‘p bosqichli va nihoyatda dinamik tizimdir. Har qanday faoliyatning pirovardida namoyon bo‘ladigan, tashqi kuzatilgan hatti-harakatlari va faoliyat natijalariga erishish darajasining ko‘rsatkichlari ortida motivlar, maqsadlar, rejalar, va boshqa tarkibiy qismlarni shakllantirish bilan bog‘liq jarayonlarning ulkan va juda murakkab tizimi yotadi¹².

Kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish va uning psixologik xarakteristikasini o‘rganishga doir yana bir o‘ziga xos yondashuv S.Pepper tomonidan taqdim etiladi¹³. Unga ko‘ra kasbiy faoliyatga kirishish jarayonida kasbiy faoliyat bilan bog‘liq barcha tarkibiy qismlar birdan paydo bo‘lib qolmaydi, balki dastlab uning ba’zi tarkibiy qismlari, keyin esa boshqalari shakllanadi.

Shuningdek, K.Selchenok kasbiy yaroqlilikning shakllanishi va namoyon bo‘lish jarayonini baholash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan harakatlar mazmuni va tuzilishini psixologik tahlil qilish mezonlarini keltirib o‘tadi¹⁴. Unga ko‘ra mezonlar:

- 1) faoliyat subyekti ushbu harakat orqali hal qiladigan vazifaning xarakteri;
- 2) subyektning ongida aks ettirilgan texnologik operatsiyalarning mazmuni;
- 3) faoliyat jarayonida qayd etilishi mumkin bo‘lgan obyektiv belgilar majmuasidan iborat.

Janubiy Kaliforniya universiteti professori H.R.Atuelning ta’kidlashicha, harbiy xizmatchilarda kasbiy faoliyatni takomillashtirishning yana bir muhim jihat – bu kasbiy mahoratni shakllantirish hisoblanadi¹⁵. Aytish joizki, kasbiy mahorat ko‘p jihatdan faoliyat subyektining kasbiy tayyorgarligi kabi tizimli xususiyat va holatlarni aks ettiradi, chunki u subyektning qobiliyat darajasi, intilishlari, maqsadlari o‘ziga xos dunyoqarashi bilan bevosa bog‘liq bo‘ladi.

A.S.Kalyujniyning ta’kidlashicha, kasbiy mahoratini shakllantirish jarayoni bir nechta asosiy xususiyatlarga ega¹⁶.

1. Individual ish harakatlarini bir butunga (bajaruvchi, gnostik va moslashuvchan harakatlar) birlashtirgan xususiyatlar;
2. Kasbiy faoliyatga tegishli bo‘lgan signallarning tasvirlarini birlashtirgan hissiy-pertseptiv xususiyatlar;
3. Hissiy-idrok bilan bog‘liq xususiyatlar.

Shunday qilib, kasbiy mahoratni rivojlantirish darajasi, uning tuzilishi va tartibga solish funksiyalari subyektning kasbiy faoliyatida rivojlanishini ta’minlashda eng muhim mezonlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Harbiy xizmatga qabul qilishda talab qilinuvchi eng asosiy jihat sifatida talabgorlarning aqliy va jismoniy sog‘lomligini tekshirish bunga yaqqol misol bo‘la oladi. T.C.Smitga ko‘ra, bu xususiyat kasbiy jihatdan muhim psixologik va fiziologik funksiyalarning rivojlanish darajasida va faoliyat talablariga mos keladigan normal va ekstremal sharoitlarda ularni tartibga solish mexanizmlarida namoyon bo‘ladi¹⁷.

A.A.Kornilovaning ta’kidlashicha, kasbiy faoliyatga funksional mos kelish muammosining psixologik va fiziologik mazmuni organizmning insonga xos funksional tizimlarining mavjudligi, uning reaktivlik, moslashuvchanlik, tashqi va ichki muhit omillari ta’siriga javoban o‘zgaruvchanligi kabi xususiyatlari bilan belgilanadi. Harbiy xizmatchilarining faoliyat sohasiga kirib borishi, kasbiy faoliyatining mazmuni va shartlariga adekvat moslashishni ta’minlash nuqtai nazaridan, bu xususiyatlari, bir tomon dan, barqaror, boshqa tomon dan, plastiklik, faoliyat omillariga moslashuvchanlik yetarli darajada bo‘lishi talab etiladi¹⁸. Chunki harbiy sohada turli xil ekstremal vaziyatlarga tushish ehtimoli, qat’iy qonun-qoida, rejimda faoliyat yuritish, jismoniy yuklamalar bu kabi xususiyatlarga ega bo‘lishni taqozo etadi.

Shuningdek, ba’zi tadqiqotchilar harbiy xizmatchilarda kasbiy faoliyatni takomillashtirishda kasbiy faoliyatga moslashish muammosiga alohida e’tibor qaratishgan.

Tadqiqotchilar Y.V.Mitasova, R.A.Zolotarev, S.Y.Malishev, A.V.Korbutlarning ta’kidlashicha, uyg‘unlik yoki o‘zaro bir xil qarashlarga ega bo‘lish harbiy xizmatchilarning harakatlarini muvofiqlashtirish, ularni umumiy rejaga bo‘ysundirish va ularni bo‘linma oldida turgan vazifani bajarishning yagona jarayoniga birlashtirish istagi va qobiliyatiga bog‘liq. Ma’lumki, jangovar tayyorgarlik jarayonida otryadlar, vzzodlar, rotalar va ularga tenglashtirilgan bo‘linmalarini amaliy muvofiqlashtirish amalga oshiriladi¹⁹. Ular bir-birlarini xabardor qilishni, harakatlarni o‘zaro taxmin qilishni va o‘z harakatlarini birlashtirish uchun zarur bo‘lgan turli aloqalarni o‘rnatishni o‘rganadilar. Muallif fikriga ko‘ra, xarbiy xizmatchilarda kasbiy faoliyatni takomillashtirishda bu omilning roli juda katta ahamiyatga ega.

Fransuz tadqiqotchisi S.Belroze o‘zaro tushunishni bir odamning boshqasini tushuna olish qobiliyati sifatida izohlaydi. Odamlar bir-birlarini turli ma’nolarda o‘zaro tushunish haqida gapirishlari mumkin, bu ularning dunyoga bo‘lgan qarashlari va qiymat yo‘nalishlarining tasodifiyligi, o‘xhashligi yoki oddiygina uyg‘unligi, bir-birining individual xususiyatlarini tushunish, xatti-harakatlarning sabablarini tushunish yoki hatto taxmin qilish qobiliyatini anglatadi²⁰.

Yuqorida keltirilgan qarashlar, yondashuvlar, konsepsiylar tahlili asosida kasbiy faoliyat psixologik muammo sifatida bir qator fanlarda, xususan, psixologiya fanida bat afsil o‘rganiladi. Harbiy xizmatchilarda kasbiy faoliyatni takomillashtirish muammosi birinchi navbatda shaxsning kasb haqidagi tasavvurlari, kasbga yaroqlilik va kasbga moslashuvi doirasida tahlil qilinadi hamda harbiy xizmatchilarda kasbiy faoliyatni amalga oshirishning o‘ziga xos psixologik tabiat mavjud bo‘lib, u shaxsning

bilish jarayonlari, individual-psixologik xususiyatlari, emotsional holatlari, motivatsion sohasi, hissiy-irodaviy sohasi bilan harakterlanadi.

Xulosa: Ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilishicha, kasb tanlash muammosini to‘g‘ri tushunish, to‘g‘ri tanlovnинг asosiy hal qiluvchi omili harbiy kasbiy qiziqish yoki harbiy kasbiy yo‘nalganlik bugungi kundagi asosiy qarashlardan biri hisoblanadi. Harbiy-yo‘nalganlikni shakllantirish shaxsning ehtiyojlari, sevimli mashg‘ulotlari va qiziqishlarini bilish va istiqbol talablari bilan mavjud moyilliklar, bilim va ko‘nikmalar ta’sirida amalga oishiriladi.

“Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litsey tinglovchilarining harbiy-kasbiy yo‘nalganligi uning keljakdagi harbiy-kasbiy faoliyatiga bo‘lgan munosabatida, xulq-atvorida, muloqotida, shuningdek, hozirgi ta’lim-tarbiya jarayonida namoyon bo‘ladi. Tinglovchilarda harbiy-kasbiy yo‘nalganlikni rivojlantirishning muhim sharti litsey tinglovchilarining kasbga yoki uning alohida tomoniga ijobiy munosabatlar va tushuncha-tasavvurlarni paydo bo‘lishi bilan harakterlanadi. Keljakda egallamoqchi bo‘lgan kasbiga nisbatan ijobiy munosabatlar, bizningcha, aniq psixologik mazmunga ega, chunki u nafaqat faoliyat yo‘nalishini aks ettiradi, balki uning obyektiga ham bog‘langan bo‘ladi. Atrofdagilarning kasbga nisbatan ehtiyojlari va intilishlari tinglovchida ham kasbga ijobiy munosabatini keltirib chiqarishi mumkin. Ya’ni bu tinglovchilarda subyektiv munosabat asosidagi qadriyatlar, ehtiyojlar va motivlar tizimini tahlil qilish uning harbiy-kasbiy yo‘nalganligini psixologik mazmunini baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Elman N. S., Robiner W. N. Professional Development: Training for Professionalism as a Foundation for Competent Practice in Psychology //Professional Psychology: Research and Practice. – 2005. – T. 36. – №. 4. – C. 367.
2. Bradley L. C., Charbonneau D. Measuring Military Professionalism //45 th Annual Conference of the International Military Testing Association. – 2003. – C. 760.

3. Johansen R.B., Laberg J.C., Martinussen M. Military identity as predictor of perceived military competence and skills //Armed Forces & Society. – 2014. – Т. 40. – №. 3. – Р. 521-543.
4. Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. – Directmedia, 2013. – С. 329.
5. Маклаков А.Г. Психология и педагогика. Военная психология / А. Г. Маклаков – СПб.: Питер, 2007. – С. 96.
6. Pepper S. PROFESSIONALISM AND RENAISSANCE MILITARY //The Chivalric Ethos and the Development of Military Professionalism. – 2003. – Т. 11. – С. 117.
7. Сельченок К. В. Проблемы военной психологии / К. В. Сельченок – Мин.: Харвест, 2003. – С. 77.
8. Atuel H. R., Castro C. A. Military cultural competence //Clinical Social Work Journal. – 2018. – Т. 46. – №. 2. – Р. 74-82.
9. Калюжный А. С. Психология личности военнослужащего //Н. Новгород: НГТУ. – 2004. – С. 131.
10. Smith T. C. et al. The physical and mental health of a large military cohort: baseline functional health status of the Millennium Cohort //BMC public health. – 2007. – Т. 7. – №. 1. –Р. 1-13.
11. Корнилова А. А. Методы оценки функционального состояния военнослужащих. – 2014. – С. 55-58.
12. Митасова Е.В., Золотарев Р.А., Малышев С.Ю., Корбут А.В. Психологические особенности формирования морально-психологических качеств курсантов военных вузов. В сборнике: Актуальные проблемы адаптации курсантов образовательных организаций МВД России к условиям профессиональной деятельности. Сборник материалов Всероссийской научно-практической конференции. 2020. – С. 182-185.